



Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikning rivojlanish xususiyatlari

Karimova Shoiraxona Baxtiyarovna

Qoqon davlat universiteti o'qituvchisi

Muhammadjonova Sadiya Raxmonjon qizi

Qoqon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikning rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda drammatizatsiya, qo'g'irchoq teatri va rolli o'yinlar orqali bolalarning fantaziyasi, ijodiy tafakkuri, nutqi, emotsional va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanishi masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sahnalashtirish faoliyatini samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik yondashuvlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sahnalashtirish faoliyati ,ijodkorlik ,drammatizatsiya ,qo'g'irchoq teatri, bolalar ,pedagogik yondashuv ,ijtimoiy ko'nikmalar ,emotsional rivojlanish

Abstract: This article analyzes the characteristics of the development of creativity in children during the process of staging activities. It examines the formation of children's imagination, creative thinking, speech, emotional development, and social skills through dramatization, puppet theatre, and role-playing games. In addition, the article highlights the pedagogical conditions and methodological approaches for effectively organizing staging activities.

Keywords: staging activities, creativity, dramatization, puppet theatre, children, pedagogical approach, social skills, emotional development

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijodiy rivojlanishning samarali vositalaridan biri – sahnalashtirish faoliyati bo'lib, u teatr va qo'g'irchoq teatri orqali amalga oshiriladi. Teatr san'ati bolalarga yaqin va tushunarli bo'lib, uning asosida o'yin yotadi. Bolalar sahna orqali nafaqat tomosha qiladilar, balki o'zini artist sifatida ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon bolalarning tasavvur, nutq, emotsional va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning xususiyatlari

Bolalarda o'yin qilishga bo'lgan ehtiyoj juda erta paydo bo'ladi. Kichkintoylar jonivorlarni taqlid qilib, ularning xarakterlarini jon-dil bilan ifodalaydilar. Bu harakatlar rejali bo'lishi bilan birga, emotsional quvvatga ega bo'lib, bolalarning ijodiy tafakkurini shakllantiradi. Teatrlashtirilgan faoliyat esa o'yinni boyitib, bolalarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular sahna orqali obrazlarga kiradi, rollarni bajaradi va turli holatlarda his-tuyg'ularini ifodalaydi. Shu bilan birga, teatr-o'yin faoliyati bolalarning nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki sahna harakatlari nutq bilan birlashtiriladi va bolalar savodli gapirishni o'rganadilar.

Dramatizatsiya – bolalar ijodining keng tarqalgan turi bo‘lib, u tayyor adabiy materiallarni sahnalashtirish yoki improvizatsiyalashgan kichik sahnalar yaratish orqali namoyon bo‘ladi. Bolalar adabiy syujetlarni o‘rganadi, personajlarning xarakterini tahlil qiladi va emotsional jihatdan ularni his qiladi. Shu tarzda, teatr-o‘yin faoliyati bolalarni badiiy tarbiyalash, estetik didini rivojlantirish, tashabbuskorlik va nutqini boyitish imkonini beradi.

Teatrlashtirilgan faoliyat bolalarni atrof-muhit bilan uyg‘un yashashga o‘rgatadi, turli faoliyat shakllari orqali bilishga va anglashga jalb qiladi. U bolalarda ijtimoiy va emotsional qobiliyatlarni shakllantiradi, o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi va omma oldida nutq so‘zlashga odatlanishga yordam beradi. Zamonaviy dunyoda teatrlashtirilgan faoliyat bolaning shaxsiy va ijodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, u ezgu hislar, hamdardlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, aqlan, jismonan va emotsional rivojlanish imkonini beradi.

Ijodkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Bolalarning ijodkorligini rivojlantirish teatr va qo‘g‘irchoq teatri orqali quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Ijodiy faollikni rag‘batlantirish: bolalarning sahnalashtirilgan faoliyatda ishtirokini ta‘minlash, turli rollarda qatnashishga imkon yaratish, improvizatsiyalashga rag‘bat berish.

- Ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirish: turli sahna va postanovkalar orqali rol o‘ynash, ifodali o‘qish, intonatsiya va mimika yordamida personajlarni jonlantirish.

- Individual xususiyatlarni hisobga olish: uyatchan bolalarga bosh rollarni berish, nutqiy qiyinchiliklari bo‘lgan bolalarni spektakllarga jalb qilish, har bir bolaning faol ishtirokini ta‘minlash.

- Emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish: personajlarning kayfiyati, emotsional holatini farqlash, quvonch, qayg‘u, jahl va boshqa hissiyotlarni namoyish qilish.

- Muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish: bolalarni birgalikda faoliyat yuritishga, o‘zaro muloqot qilishga o‘rgatish, ota-onalar bilan hamkorlikni ta‘minlash.

Sahnalashtirilgan faoliyat pedagogik jarayonida uch bosqichda amalga oshiriladi: tashkiliy, amaliy va yakunlovchi. Tashkiliy bosqichda metodik adabiyotlar o‘rganiladi, bolalar va ota-onalar bilan suhbatlar tashkil qilinadi, faoliyat rejasi tahlil qilinadi. Amaliy bosqichda teatr-o‘yin mashg‘ulotlari, sahnalashtirish, improvizatsiya va qo‘g‘irchoq teatridan foydalanish amalga oshiriladi. Yakunlovchi bosqichda esa bolalarning ijodiy qobiliyatlari baholanadi va rivojlantiruvchi muhitni boyitish choralari ko‘riladi.

Sahnalashtirish faoliyati bolalar ijodkorligini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. U bolalarga tasavvur, nutq, emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi, shuningdek, ularning o‘ziga ishonchi va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Teatrlashtirilgan faoliyat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida nafaqat badiiy tarbiya, balki shaxsiy rivojlanishning samarali yo‘nalishi sifatida keng qo‘llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

5. Ilk qadam maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining takomillashtirilgan Davlat o‘quv dasturi T.: YUNISEF, 2022

6. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>
7. Qodirova F.R., Toshpulatova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika Darslik T.: Tafakkur nashriyoti, 2019
8. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika T.: Fan va texnologiya, 2019
9. Karimova L. Bolalarda ijodiy rivojlanishning pedagogik asoslari T.: Fan, 2020
10. Sharipova D. Qo‘g‘irchoq teatri va maktabgacha ta’lim T.: Ilm, 2019
11. Mustafaeva Z. Bolalar teatr-o‘yin faoliyati nazariyasi va amaliyoti T.: Fan va ta’lim, 2021
12. Islomova N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq va emotsional rivojlanishning teatrlashtirilgan faoliyat orqali shakllanishi T.: Pedagogika va psixologiya, 2020